VULGAR PO'RSILDOQDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATI HOLATINING TISH PROTEZLARIGA MOSLASHISH JARAYONIGA TA'SIRI

Akbarov A.N.
Azizov I.B.
Ayupova Sh.T.
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti, 100109 Toshkent, O'zbekiston Farobiy ko'chasi 2,
Tel: +998781507825 E-mail: info@tdmu.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisda vulgar po'rsildoq bilan kasallangan bemorlarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati holatining tish protezlariga moslashish jarayoniga ta'sirini o'rganish tutilgan. Tadqiqot doirasida 40–60 yosh oralig'idagi 35 nafar bemorning klinik holati, eroziv shikastlanishlar, og'riq intensivligi va protezga moslashish xususiyatlarini qiyosiy baholash rejalashtirilgan. Tadqiqot ortopedik stomatologik davolashni individuallashtirish, mahalliy asoratlarning oldini olish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: vulgar po'rsildoq, og'iz bo'shlig'i shilliq qavati, tish protezlari, ortopedik stomatologiya, eroziv shikastlanishlar, protezga moslashish.

Dolzarbligi. Vulgar po'rsildoq (Pemphigus vulgaris) teri va shilliq qavatlarning surunkali autoimmun kasalligi bo'lib, og'iz bo'shlig'ida og'riqli eroziyalar, yarali shikastlanishlar va epiteliy butunligining buzilishi bilan tavsiflanadi [4, 6, 8]. Kasallikning og'iz bo'shlig'ida namoyon bo'lishi bemorlarning ovqatlanishi, nutqi va tish protezlaridan foydalanish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi [3, 5]. Ayniqsa, shilliq qavatning mexanik ta'sirlarga sezuvchanligi ortishi protezga moslashish jarayonini murakkablashtiradi [1, 2]. Shu sababli ushbu bemorlarda shilliq qavatning klinik holatini hisobga olgan holda ortopedik stomatologik davolash usullarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [4, 7].

Tadqiqot maqsadi. Vulgar po'rsildoq bilan kasallangan bemorlarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati holatining tish protezlariga moslashish jarayoniga ta'sirini o'rganish va ortopedik davolash samaradorligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotni Toshkent davlat tibbiyot universitetining ortopedik stomatologiya hamda 2-son dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedralari klinik bazada o'tkazildi. Tadqiqotga vulgar po'rsildoq tashxisi tasdiqlangan, tish protezlashga muhtoj 40–60 yoshdagi 35 nafar bemorni jalb etildi. Namunaviy tarkibda 21 nafar (60%) ayol va 14 nafar (40%) erkak belgilandi. Yosh guruhlari bo'yicha 40–45 yoshda 7 nafar (20%), 46–50 yoshda 10 nafar (28,6%), 51–55 yoshda 11 nafar (31,4%) va 56–60 yoshda 7 nafar (20%) bemorlarga ajratildi. Bemorlar shilliq qavatning klinik holatiga ko'ra ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhga remissiya davridagi 18 nafar (51,4%), ikkinchi guruhga anamnezida qaytalanuvchi eroziv shikastlanishlari mavjud 17 nafar (48,6%) bemor kiritildi. Ikkala guruhda ham protezlash kasallik klinik nazoratga olingandan so'ng amalga oshirildi. Klinik baholashda og'riq intensivligi vizual analog shkala (VAS), shilliq qavatdagi eroziv o'zgarishlar, protezga moslashish davomiyligi va mahalliy asoratlar hisobga olindi. Kuzatuvlar protezlashdan keyingi 7, 14, 30 va 90-kunlarda o'tkazildi. Guruhlar o'rtasidagi farqlar tegishli statistik usullar yordamida baholandi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Natijalar va tahlillar. Tadqiqotning asosiy yo'nalishi vulgar po'rsildoqda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining klinik holati bilan tish protezlariga moslashish xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan iborat. Rejalashtirilgan tadqiqot tarkibida 35 nafar bemorning 18 nafari (51,4%) remissiya davridagi, 17 nafari (48,6%) esa qaytalanuvchi eroziv shikastlanishlarga moyil guruhni tashkil etdi. Bemorlarning yosh tarkibida 51–55 yosh guruhi eng katta ulushga (31,4%) ega bo'lishi belgilandi. Kutilayotgan natijalarga ko'ra, remissiya davridagi bemorlarda shilliq qavatning nisbatan barqaror holati tish protezlariga moslashishni yengillashtirishi mumkin. Eroziv shikastlanishlarga moyilligi yuqori bemorlarda esa protezning mexanik ta'siriga sezuvchanlik saqlanib qolishi, og'riq sindromining kuchayishi va moslashish muddatining uzayishi ehtimoli mavjud. Protezlashdan keyingi 7 va 14-kunlarda og'riq intensivligi, shilliq qavatdagi mahalliy shikastlanishlar va protezdan foydalanishdagi noqulayliklar baholandi. 30 va 90-kunlarda esa protezga moslashishning barqarorligi, chaynash funksiyasidagi o'zgarishlar hamda qaytalanuvchi eroziv jarayonlarning chastotasi o'rganildi. Qiyosiy tahlil davomida har ikki guruhda og'riq darajasining dinamikasi, moslashish uchun talab etilgan vaqt va mahalliy asoratlarning uchrash chastotasi taqqoslandi. Shuningdek, protez konstruksiyasining shilliq qavatga mexanik ta'siri bilan klinik simptomlar o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Shilliq qavatning sezuvchanligi yuqori bo'lgan bemorlarda protez chegaralarini individual moslashtirish, bosim nuqtalarini bartaraf etish va muntazam nazorat ko'riklarini tashkil qilish orqali mexanik shikastlanishlar xavfini kamaytirish imkoniyatlari o'rganildi. Mazkur ko'rsatkichlarning statistik tahlili shilliq qavatdagi patologik o'zgarishlarning protezga moslashish jarayonidagi ahamiyatini aniqlash va ortopedik davolash taktikasini individuallashtirish uchun ilmiy asos yaratishi kutilmoqda.

Xulosa. Vulgar po'rsildoq bilan kasallangan bemorlarda tish protezlariga moslashish jarayonida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining klinik holatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Kasallikning remissiya davrida, dermatolog bilan hamkorlikda va individual klinik yondashuv asosida amalga oshiriladigan protezlash shilliq qavatning mexanik shikastlanish xavfini kamaytirish hamda ortopedik davolash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Corsalini M., Rapone B., Di Venere D., Petruzzi M. Removable Prosthetic Treatment in Oral Pemphigus Vulgaris: Report of Three Cases // Journal of International Society of Preventive & Community Dentistry.2019. – Vol. 9(4). – P. 423–426. https://doi.org/10.4103/jispcd.JISPCD_421_18.
2. Altin N., Ergun S., Katz J. et al. Implant-Supported Oral Rehabilitation of a Patient with Pemphigus Vulgaris: A Clinical Report // Journal of Prosthodontics. – 2013. – Vol. 22(7). – P. 581–586. https://doi.org/10.1111/jopr.12050.
3. Batistella E.A., da Silva R.S., Rivero E.R.C., Silva C.A.B. Prevalence of Oral Mucosal Lesions in Patients with Pemphigus Vulgaris: A Systematic Review and Meta-analysis // Journal of Oral Pathology & Medicine. – 2021. – Vol. 50(8). – P. 750–757. https://doi.org/10.1111/jop.13167. . Murrell D.F., Peña S., Joly P. et al. Diagnosis and Management of Pemphigus: Recommendations of an International Panel of Experts // Journal of the American Academy of Dermatology. – 2020. – Vol. 82(3). – P. 575–585.e1. https://doi.org/10.1016/j.jaad.2018.02.021.
4. Kuten-Shorrer M., Menon R.S., Lerman M.A. Mucocutaneous Diseases // Dental Clinics of North America. – 2020. – Vol. 64(1). – P. 139–162. https://doi.org/10.1016/j.cden.2019.08.009.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

5. Buonavoglia A., Leone P., Dammacco R. et al. Pemphigus and Mucous Membrane Pemphigoid: An Update from Diagnosis to Therapy // Autoimmunity Reviews. – 2019. – Vol. 18(4). – P. 349–358. https://doi.org/10.1016/j.autrev.2019.02.005.
6. Mays J.W., Carey B.P., Posey R. et al. World Workshop of Oral Medicine VII: A Systematic Review of Immunobiologic Therapy for Oral Manifestations of Pemphigoid and Pemphigus // Oral Diseases. – 2019. – Vol. 25(Suppl. 1). – P. 111–121. https://doi.org/10.1111/odi.13083.
7. Melchionda V., Harman K.E. Pemphigus Vulgaris and Pemphigus Foliaceus: An Overview of the Clinical Presentation, Investigations and Management // Clinical and Experimental Dermatology. – 2019. – Vol. 44(7). – P. 740–746. https://doi.org/10.1111/ced.14041

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.